

“BORISH KERAK BO‘LGAN SHAHAR” (2-SINF) MATNI USTIDA ISHLASH

*Qurbonov Zayniddin,
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti, dotsent
Avalbekova Dilfuza, talaba,*

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinf “Ona tili va O‘qish savodxonligi” kitobidagi ”Borish kerak bo‘lgan shahar” matni ustida ishlashni o‘rgatish haqida fikr yuritiladi. O‘quvchilarni matn ustida ishlashga o‘rgatish ularda adabiy-estetik tahlil malakasini shakllantirish va o‘stirish orqali ta’lim-tarbiya berishni nazarda tutadi shuningdek, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o‘stirish, xotirasini mustahkamlash, o‘qish va savodxonlik ko‘nikmalarini takomillashtirish hamda matnda ifoda etilgan voqealarga munosabat bildirish, o‘quvchilar lug‘atini yangi so‘zlar bilan boyitishdir.

Kalit so‘zlar: qadimgi, yer yuzining sayqali, e’tirof etilmoq, hujum, qal’a, darvoza, festival.

Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslari o‘z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko‘ra ta’lim tizimida alohida o‘rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta’limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta’limini o‘qish ta’limisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.. O‘quvchi matnni to‘g‘ri, tez, tushunib o‘qish, mazmunini o‘zlashtirish bilan ilk bor o‘qish darslarida yuzlashadi.

Aynan o‘qish ta’limida insonning, avvalo, o‘zligini, qolaversa olamni anglashga bo‘lgan intilishlariga turtki beriladi. Shu maqsadda „O‘qish kitobi“ darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o‘rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqlol va milliy-ma’naviy qadriyatlar, xalqlar do‘stligi va tinclilik kabi turli mavzular bo‘yicha atroflicha tushunchalar berishga mo‘ljallangan badiiy, axloqiy-ta’limiy, ilmiy-ommabop asarlar kiritiladi. O‘qish darslari savod o‘rgatish davrida o‘quvchilarni bo‘g‘in, so‘z va gaplar bilan tanishtirish va ularni o‘qish, rasmlar asosida hikoya qilish tarzida uyushtirilsa, o‘qish texnikasi egallangandan so‘ng o‘qish muayyan mavzular bo‘yicha tanlangan badiiy, ilmiy-ommabop matnlar yuzasidan olib boriladi. Masalan, “Borishi kerak bo‘lgan shahar” (2-sinf) matni ustida ishlashda quyidagi ish turlaridan foydalaniladi:

1. Tanlab o‘qish
2. O‘quvchilarning savol va topshiriqlarga o‘z so‘zlari bilan javob berishi.

3. O‘quvchilarni savol tuzishga o‘rgatish

Tanlab o‘qishda o‘quvchi matnning berilgan vazifaga mos qismini o‘qiydi. Vazifa asarning mazmunini oydinlashtirish, sabab-natija bog‘lanishini belgilash, badiiy xususiyatini ochish, o‘qilgan matnga o‘z shaxsiy munosabatini ifodalashdan iborat bo‘lishi mumkin. *Tanlab o‘qish* matn ustida ishlashning eng samarali usulidir. *Tanlab o‘qishdan* matn ustida ishlashning barcha bosqichlarida turli xil qiyinchilikda, murakkablikda foydalaniladi. U o‘quvchilarda yaxshi o‘qish sifatlarini o‘stirish bilan birga ularning ijodiy tasavvuri, nutqi va zehnini o‘stirishga yordam beradi[2]. Eng oddiy *tanlab o‘qish* asar mazmuni yuzasidan bo‘ladi.

Masalan, 2-sinfda “Borishi kerak bo‘lgan shahar”[1] matni yuzasidan *tanlab o‘qish* uchun quyidagi topshiriqlar beriladi:

— *Samarqand shahriga ta’rif berilgan o‘rinni o‘qing.*

Samarqand – dunyoning eng qadimgi shaharlaridan biri. U o‘rta asrlarda “Yer yuzining sayqali” deya e’tirof etilgan.

— *Samarqandning qadimgi nomlari berilgan o‘rinni topib o‘qing.*

Samarqandning qadimgi nomlaridan biri “Smarakansa” bo‘lib, “ulug‘ shahar” degan ma’noni anglatgan. Turkiy tilda so‘zlovchi aholi esa uni “Semizkent” deb atagan.

— *Samarqandni himoyalovchi vosita berilgan o‘rinni topib o‘qing.*

Qadimda Samarqandni baland devor bilan o‘rab chiqishgan. O‘sha devorlar shaharni dushmanlar hujumidan himoya qilib turgan. Devor bilan o‘ralgan shaharlar qal’a deyilgan. Uning 3 ta darvozasi bo‘lgan. Samarqand qal’asiga kirish va chiqish ana shu darvozalar orqali amalga oshirilgan.

Tanlab o‘qishning yana ham murakkabroq turi matndan sabab-natija munosabati bilan bog‘langan dalillarni taqqoslashni, umumlashtirishni talab qiladigan o‘rinlarini topib o‘qish hisoblanadi. Bunda o‘quvchi biror qatnashuvchi shaxs o‘zini qanday tutishini, nima uchun u shundayligini tasdiqlash uchun matndan material *tanlab o‘qiydi*. Masalan,

— *Nima sababdan vayronaga aylantirilgan joylar Afrosiyob deb atalgan? Shu o‘rinni topib o‘qing.*

Qal’a mustahkam bo‘lsa ham, u juda ko‘p hujumlarga uchragan, urushlarga guvoh bo‘lgan. Bir necha bor vayronaga aylantirilgan. Ana o‘sha vayronalar ba’zi manbalarda Afrosiyob deb ham ataladi.

— *Nima sababdan Samarqandga borishi kerak? Shu o‘rinni topib o‘qing.*

Samarqandning yoshi 2700 dan oshgan ekan. Samarqand albatta borish kerak bo‘lgan 50 shaharning biri hisoblanadi.

O‘quvchilar savol va topshiriqlarga o‘z so‘zlari bilan javob berishi. Mashqning bu turi o‘quvchilarda o‘qilganlar yuzasidan muhokama yuritish ko‘nikmasini o‘stirishga, matnda qatnashuvchi qahramonlarni va joylarni baholashga imkon beradi. Ishning bu turida beriladigan savollar o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undashi lozim. Masalan, ”Borish kerak bo‘lgan shahar” matni yuzasidan quyidagicha savol-topshiriqlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.

— *Nima uchun Samarqand “Yer yuzining sayqali” deya e‘tirof etilgan?*

— *Amir Temur bobomiz kim bo‘lganki bu davrda Samarqand shahri juda go‘zallashib ketdi?*

— *Registon maydonida hozir qanday xalqaro festival o‘tkaziladi?*

O‘quvchilarni savol tuzishga o‘rgatish. O‘quvchilarni savol tuzishga o‘rgatish matn ustida ishlashda yaxshi natija beradi. O‘qituvchi o‘quvchilar e‘tiborini matnga savol tuzish yo‘liga qaratadi va savol tuzishdan oldin matnni diqqat bilan o‘qish, qatnashuvchi shaxslarni va joy nomlarini ko‘rsatish, savol tuziladigan qismni ajratish kerakligini tushuntiradi. Savol tuzishga o‘rgatishning boshlang‘ich bosqichida bu mashq jamoa bo‘lib bajariladi. Masalan, ”Borish kerak bo‘lgan shahar” matni yuzasidan quyidagicha savol tuzish topshirig‘i beriladi:

— *Matnning birinchi xatboshini o‘qing va shu qism yuzasidan savol tuzing.*

Kimlar uni Semizkent deb atashgan?

— *Matndagi birinchi xatboshida qo‘llangan so‘zlarning ma‘nosini izohlash bo‘yicha savol-topshiriqlar tuzing. (qadimgi, yer yuzining sayqali so‘zlarining ma‘nosini izohlang)*

Nima uchun Samarqand yer yuzining sayqali deya e‘tirof etiladi?

— *Matnning oxirgi xatboshini o‘qing va shu qism yuzasidan savol tuzing.*

Shahar necha yoshda?

Matnni tahlil qilish jarayonida yana muhim ish turlaridan biri lug‘at ustida ishlash hisoblanadi[3]. O‘quvchilar matndagi so‘z va iboralarga birinchi marta duch kelayotgan bo‘lishi mumkin. Bu so‘z yangi paydo bo‘lgan so‘z bo‘lmasa ham, o‘quvchi uning ma‘nosini bilmaydi, demak, o‘quvchi uchun yangi so‘z hisoblanadi.

Masalan, *qadimgi-uzoq*, yoki uzoq zamonlardan beri mavjud bo‘lgan, *yer yuzining sayqali*-yer yuzining ko‘rki hisoblanadi, e’tirof etilmoq-ta’kidlab o‘tilmoq, tan olinmoq, *festival*-musiqa, teatr, film, estrada, sirk san’ati yutuqlari jamlanmasidan iborat ommaviy bayram.

Bugungi kunda boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish kitoblarining bir nom ostida ona tili va o‘qish savodxonligi deb nomlanishidan asosiy ko‘zlangan maqsad bir vaqtning o‘zida o‘quvchilar ham o‘qish, ham ona tiliga oid bilimlarni egallash orqali mustaqil fikrlay oladigan avlod bo‘lib yetishishdir. Shu bois o‘quvchilar matn ustida ishlashda ona tilidan ko‘nikmalarini hosil qilishda quyidagi topshiriqlarni bajarish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

1-topshiriq. *Samarqand – “Yer yuzining sayqali”*. Sizingcha ushbu gapdagi “sayqal” so‘zi qaysi ma’nolarda kelgan? Mos javoblarni belgilang.

obro‘si	ko‘rki	jilosi	bezagi	chiroyi	yuragi
---------	--------	--------	--------	---------	--------

2-topshiriq. *Qal’a mustahkam bo‘lsa ham u juda ko‘p hujunlarga uchragan, urushlarga guvoh bo‘lgan*. Sizingcha, ushbu gapdagi “guvoh bo‘lgan” birikmasi qaysi ma’nolarda kelgan? Mos javoblarni belgilang.

ko‘rgan	sababchi	shohid	tayyorgarliksiz	vayron bo‘lgan
---------	----------	--------	-----------------	----------------

3-topshiriq. *Bir necha bor vayronaga aylantirilgan*. Sizingcha, ushbu gapdagi “vayrona” so‘zi qaysi ma’nolarda kelgan? Mos javoblarni belgilang.

xarob	buzilga	qarovsi	imora	esk	faysi
a	n	z	t	i	z

Uyga vazifa. Matnni o‘qing. Sonlarni topib so‘z bilan yozing.

Bu bilim va ko‘nikmalar mashqlar bajarish bilan mustahkamlab boriladi. Mashqda qo‘llanilgan sonlarning talaffuzi, imlosi va ma’nosi ustida ishlanadi. Ko‘rinib turibdiki, mashq shartlari soddadan murakkabga tamoyiliga asoslangan.

Xulosa qilib aytganda, matning, avvalo, ixchamliligi, tilining sodda, qisqa, o‘tkir va xalqchilligi bola hissiyotiga va dunyo qarashiga katta ta’sir qiladi hamda o‘quvchilar nutqini o‘stirishda muhim material hisoblanadi. Matnda berilgan joy nomlariga ta’riflar va qiziqarli faktlar o‘quvchining diqqatini o‘ziga jalb qiladi va o‘z fikrlash doirasini kengaytiradi. Shunday qilib, boshlang‘ich sinflarda matni tahlil

qilishda, umuman, matni tahlil qilishni o'rganishda o'quvchi shaxsiga kuchli ta'sir qiluvchi, ularning saviyasiga mos, bilimlarning o'zlashtirilishini ta'minlovchi metod va usullardan, tahlil turlaridan foydalanish o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan asdabiyotlar

1. Mavlonova K, [va boshq.], Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 120 b.
2. Qosimova| K, Matchonov S, G'ulomova, X. Yo'ldosheva Sh., Sh. Sariyev. Ona tili o'qitish metodikasi (Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun darslik): — T.: «NOSHIR», - 2009. 352 b.
3. Qurbonov Z, Shakarova M. “Ochko'z boy” ertagi matni ustida ishlashni o'rgatish (4-sinf misolida). “Til,ta'lim,tarjima” xalqaro jurnali. №3. 2021, 94-100 betlar.